



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ILMGA VA DUNYOGA HARISLIK O'RTASIDAGI HADISIIY QIYOSNING TARBIYA FANIDAGI TALQINI: AXLOQIY ONGNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Axmedov Boburjon Vasikovich

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Boshlang'ich
ta'lim pedagogikasi kafedراسi o'qituvchisi.*

<https://orcid.org/0009-0000-5274-8916>

E-mail: boburjonahmedov993@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmning fazilati va ilmga harislikning tarbiyaviy hamda ma'naviy-axloqiy mazmuni hadislar misolida ilmiy tahlil etiladi. "Mishkot al-Masobih" kabi ishonchli manbalarda keltirilgan hadislar asosida ilmga intilishning shaxs kamolotidagi o'rni, axloqiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati hamda o'quvchi ruhiyatida intellektual qanoatsizlikning ijobiy ta'siri ochib beriladi. Dunyoga harislikning tarbiya dagi ogohlantiruvchi jihatlari izohlanib, ilmning ibodatdan ustun qo'yilishi haqidagi hadislar tarbiya fanidagi jarayon-orientatsiyalangan yondashuv bilan bog'lab tahlil qilinadi. Shuningdek, ilm talabi jarayonining o'zi mukofotga sazovor ekani haqidagi hadisning pedagogik motivatsiyani oshirishdagi o'rni asoslanadi. Maqola axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya va faoliyatga yo'naltirilgan ta'limda hadislarining amaliy ahamiyatini yoritadi.

Tayanch so'zlar. Ilmga harislik; dunyoga harislik; hadis; tarbiya; axloqiy ong; ma'naviy tarbiya; umrboqiy ta'lim; motivatsiya; pedagogik yondashuv; qadriyatlar ierarxiyasi.

В НАУКЕ О ВОСПИТАНИИ, ТОЛКОВАНИЕ ХАДИСОВОГО СРАВНИВАТЬ МЕЖДУ ЖАЖДА К НАУКЕ И ЖАЖДА МИРОВЫМ: МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ педагогического и нравственно-воспитательного содержания хадисов, раскрывающих превосходство знания и состояние «стремления к знанию» в исламской духовной традиции. На основе хадисов, приведённых в труде «Мишкят аль-Масабих», обосновывается роль познания в развитии личности, формировании нравственного сознания и стимулировании интеллектуального поиска у обучающихся. Показаны предостерегающие аспекты стремления к мирскому, а также взаимосвязь хадисов об превосходстве знания над поклонением с процессно-ориентированным подходом в педагогике. Особое внимание уделено хадису о вознаграждении за само стремление к знанию, что служит основой для повышения внутренней мотивации обучающихся. Материал раскрывает практическое значение хадисов в нравственном воспитании, духовном развитии и деятельностно-ориентированном обучении.



Ключевые слова. Стремление к знанию; стремление к мирскому; хадис; воспитание; нравственное сознание; духовное воспитание; обучение на протяжении жизни; мотивация; педагогические принципы; иерархия ценностей.

**IN THE UPBRINGING SCIENCE, THE INTERPRETATION OF HADITH IS
COMPARED BETWEEN THE THIRST FOR SCIENCE AND THE THIRST FOR
THE WORLD: MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF MORAL
CONSCIOUSNESS**

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the pedagogical and moral-ethical significance of prophetic traditions (hadiths) that emphasize the superiority of knowledge and the concept of “aspiration for knowledge” within Islamic intellectual tradition. Drawing on hadiths from Mishkat al-Masabih, the study examines the role of knowledge in personal development, the formation of moral consciousness, and the cultivation of intellectual curiosity in learners. The article also explores the cautionary dimension of worldly greed, linking the prophetic comparison between desire for knowledge and desire for worldly gains to modern educational principles. Furthermore, the hadith concerning reward for seeking knowledge-even without fully attaining it-is analyzed as a foundation for process-oriented pedagogical motivation. The article highlights the practical applicability of these teachings in moral education, spiritual development, and activity-based learning.*

Keywords. *Love of knowledge; worldly desire; hadith; education; moral consciousness; spiritual upbringing; lifelong learning; motivation; pedagogical approach; hierarchy of values.*

Kirish (Introduction). Milliy ma’naviyatimiz rivojida ilmning o‘rni beqiyos bo‘lib, u insonni jaholat zulmatidan najotga yetaklaydigan eng yuksak qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Islom manbalarida ilmning fazilati, ayniqsa hadislar talqinida, shaxs kamoloti va tarbiyaning asosiy omillaridan biri sifatida yoritilgan. Valiyuddin Xatib At-Tabriziyning “Mishkot al-Masobih” asarida keltirilgan hadislar ham ilmning cheksiz fazilati bilan bir qatorda, insonni ma’naviy kamolot sari yetaklaydigan tarbiyaviy konsepsiyalarni o‘zida mujassam etadi. Ilmga harislik - inson ruhiyatida intellektual o‘shish, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va mas’uliyatli dunyoqarashni shakllantiruvchi muhim omildir. Ma’zkur maqola ilmga va dunyoga harislik o‘rtasidagi hadisiiy qiyosni tarbiya fanining nazariy tamoyillari bilan bog‘lagan holda tahlil qiladi hamda o‘quvchi shaxsini ma’naviy-axloqiy yetuklik sari yo‘naltiruvchi pedagogik mexanizmlarni asoslaydi.

Milliy madaniyatimizda ilmning fazilati nihoyasiz bo‘lib, u insonni jaholatdan najotga, zulmatdan nurlikka yetaklaydigan eng muhim vositadir. **Valiyuddin Xatib At-Tabriziyning**




TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“Mishkot al-Maʼsoʼibih” (“Chiroqlar tokchasi”)⁹ asarida keltirilgan quyidagi hadis, ayniqsa tarbiya ilmi uchun chuqur pedagogik va axloqiy mazmunga egadir. Rasululloh alayhissalom shunday deganlar:

“Ikkita haris kishi bor, ular aslo to‘ymaydi: biri - ilmga haris, aslo to‘ymaydi, ikkinchisi - dunyoga haris, u ham to‘ymaydi”.

(Imom Bayhaqiy, Shu‘abul iymonda rivoyat qilgan).

 Ilm harisligi - ruhiy o‘shish va ma’naviy kamolot yo‘li.

Hadisda zikr etilgan “ilmga haris” kishining holati - haqiqiy tarbiya subyekti, ya’ni o‘z-o‘zini tarbiyalaydigan ongli inson timsolidir. Fanda bu - shaxsiy o‘shishga intilish (self-actualization) deb yuritiladi. Bunday inson uchun ilm - shunchaki bilim emas, balki hayot falsafasi, jamiyatga xizmat vositasidir. Bu jihatdan qaraganda, ilmga bo‘lgan cheksiz intilish - umrboqiy tarbiya (lifelong education) tamoyiliga mos tushadi.

Ilmga harislik ruhiyatida, o‘quvchiga xos bo‘lgan intellektual qanoatsizlik, ya’ni “ko‘proq bilish istagi” ustuvor o‘rinda turadi. Bu istak, insonni mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashishga va ma’naviy mas’uliyatni chuqur anglashga olib boradi. Aynan shunday qalb sohiblari orqali insonlar taraqqiy topgan.

Dunyoga harislik - tarbiyaning ogohlantiruvchi nuqtasi.

Hadisning ikkinchi qahramoni - dunyoga haris kishidir. Bu esa nafsga berilgan, ma’naviy tarbiyasiz shaxs ramzidir. Tarbiya fani bunday holatni shaxsiy manfaatparastlik, materiyalistik qarashlar ustuvorligi sifatida baholaydi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, axloqiy inqirozlar va tarbiya tizimidagi bo‘shliqlar sababi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmga haris inson jamiyatni yuksaltirsa, dunyoga haris kishi jamiyatni yemiradi. Shuning uchun tarbiya jarayonida o‘quvchilarga “Qadriyatlar ierarxiyasi”ni anglatish zarur: ilm - yuksalishga, dunyo - sinovga xizmat qiladi.

Ilmning fazilati: Tarbiya va ibodat nisbatida.

Rasululloh alayhissalom boshqa bir hadislarini orqali ilmni ibodatdan ustun qo‘yib shunday deganlar:

“Ildagi fazilat - ibodatdagi fazilatdan yaxshiroqdir.”

Bu hadisi sharif bilim asosida qurilgan tarbiya ibodatga qiyoslanganida, ko‘p sonli insonlar hayotiga ijobiy ta’sir qilishi bilan ajralib turishini ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa o‘qituvchi va murabbiylar uchun beqiyos dalildir: bir marta chin dildan tushuntirilgan saboq - yillab o‘qilgan nafl ibodatlardan ham ko‘proq samara berishi mumkin.

Tarbiya fanida bu fikr “ko‘pga foydasi tegadigan bilim - eng afzal amaldir” degan tamoyilni ifoda etadi. Ilm ahli jamiyatda ijtimoiy o‘zgarishlarni boshlaydi, iymon va adolat mezonlarini targ‘ib qiladi.

⁹ O‘zbekiston musulmonlari idorasi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti Ko‘kaldosh o‘rta maxsus islom bilim yurti. Valiyuddin Xatib At-Tabriziy. “Mishkot al-Maʼsoʼibih”: Ilm kitobi. Birinchi jild. Uchinchi fasl. 645-646-650-betlar. 253-255-260-hadislar. “Hilol nashr”. Toshkent-2023.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Ilm talabi va mukofotga doir tarbiyaviy jihat.

Yana bir hadisda Rasululloh alayhissalom marhamat qiladilar:

“Kim ilm talab qilib, uni hosil qilsa, unga ajrdan ikki nasiba bor. Va agar hosil qilmasa, ajrdan bir nasiba bor.” (Imom Dorimiy rivoyati)

Bu hadis tarbiya sohasida jarayonga yo'naltirilgan yondashuv (process-oriented approach)ni yoritadi. Unda ilm olishdagi natija emas, balki ilm talab qilish yo'lidagi mashaqqatning o'zi qadrlanadi. O'quvchi ilmni to'liq egallamasada, uni izlagani, mehnat qilgani uchun mukofotlanadi. Bu - motivasiyani oshirishda pedagogik asosi bor tamoyildir.

Yuqoridagi hadislar, ayniqsa tarbiya fanining quyidagi sohalariga bevosita taalluqlidir:

- Axloqiy tarbiya: Ilmga intilishni shaxsiy qadriyat sifatida shakllantirish.
- Ma'naviy tarbiya: Ilmni iymon bilan uyg'unlashtirish, dunyoga ortiqcha bog'lanmaslikni anglatish.
- Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim: Ilm talabi jarayonining o'zi mukofotga loyiq ekani orqali o'quvchini rag'batlantirish.

Har bir pedagog ushbu hadislarini dars mazmuniga integratsiya qilgan holda, o'quvchilarni:

- Ilmga muhabbatli,
- Qanoatli va pok niyatli,
- Hayotiy qadriyatlarni anglagan inson sifatida tarbiyalashi lozim.

Methods (Usullar). Ushbu tadqiqot nazariy-analitik metod asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi manbalar tahlil qilindi:

1. Islomiy manbalar: Hadislar, jumladan Imom Bayhaqiy va Imom Dorimiy rivoyatlari; Valiyuddin Xatib At-Tabriziyning Mishkot al-Ma'sobih asari.

2. Tarbiya va pedagogika adabiyoti: Ilmning shaxs va jamiyat rivojidagi roli, ma'naviy va axloqiy tarbiya tamoyillari.

3. Analitik metod: Hadislardagi ilmga va dunyoga harislik tushunchalari pedagogik kontekstda tahlil qilindi, ularning axloqiy, ma'naviy va motivatsion jihatlari aniqlangan.

Tadqiqotda jarayon-orientatsiyalangan yondashuv (process-oriented approach) asosida ilm talabi va tarbiya jarayonidagi motivatsiya mexanizmlari o'rganildi.

Results (Natijalar). Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Ilmga harislik:
 - Shaxsiy o'sish va ma'naviy kamolot yo'li sifatida aniqlangan;
 - Mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va axloqiy mas'uliyatni rivojlantiradi;
 - Ilm shunchaki bilim emas, balki hayot falsafasi va jamiyatga xizmat vositasi sifatida namoyon bo'ladi;
 - Ilmga intilish – umrboqiy ta'lim (lifelong education) tamoyiliga mos tushadi.
2. Dunyoga harislik:
 - Shaxsiy manfaatparastlik va materialistik qarashlar ustuvorligi sifatida baholanadi;
 - Tarbiyaviy ogohlantiruvchi rolni o'ynaydi;
 - Jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



3. Ilm va ibodat nisbati:

o “Ilmdagi fazilat – ibodatdagi fazilatdan yaxshiroqdir” hadisi asosida ilm asosida shakllangan tarbiya samarasi ibodatga nisbatan kengroq ijtimoiy ta’sirga ega ekanligi aniqlangan.

o Ilm talab qilish jarayonidagi mashaqqatning o’zi mukofotga loyiq hisoblanadi, bu motivatsiyani oshirishning pedagogik tamoyilidir.

4. Tarbiyaviy sohalarga taalluqi:

o Axloqiy tarbiya: ilmga intilish shaxsiy qadriyat sifatida shakllanadi;

o Ma’naviy tarbiya: ilm iymon bilan uyg’unlashadi, dunyoga ortiqcha bog’lanish kamayadi;

o Faoliyatga yo’naltirilgan ta’lim: ilm talabi jarayoni o’quvchini rag’batlantiradi.

Discussion (Munozara). Natijalar shuni ko’rsatadiki, hadisiiy qiyos - ilmga va dunyoga harislik - tarbiyaviy va pedagogik jihatdan muhim vosita hisoblanadi. Ilmga harislik orqali shaxs:

- Ma’naviy-axloqiy yetuklikka erishadi;
- Jamiyat taraqqiyotiga hissa qo’shadi;
- O’z-o’zini tarbiyalaydigan ongli subyektga aylanadi.

Dunyoga harislik esa pedagogik ogohlantirish sifatida ishlatiladi, u shaxsni nafsiiy va materiyalistik qarashlardan ehtiyot bo’lishga o’rgatadi. Shuningdek, hadislar ilm talabi jarayonini mukofotlash va motivatsiya mexanizmlari sifatida yoritadi, bu esa faoliyatga yo’naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan uyg’unlashadi.

Ushbu tadqiqot shuni ko’rsatadiki, hadislar asosida ishlab chiqilgan pedagogik model:

- O’quvchilarni ilmga muhabbatli, qanoatli va pok niyatli shaxs sifatida tarbiyalash;
- Hayotiy qadriyatlar tizimini anglash;
- Axloqiy ong va ma’naviy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar ilmga harislik va dunyoga harislikning zamonaviy tarbiya tizimida strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ilmga harislik va dunyoga harislikni hadisiiy qiyos asosida pedagogik talqin qilish shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim mezoni hisoblanadi. Ushbu konsepsiyani davlat siyosati darajasida ham mustahkamlashga Prezident Shavkat Mirziyoyevning maktab o’quvchilari bilan bo’lgan suhbatidagi nutqi misol bo’la oladi:

“Siz to’g’ri yo’ldasiz. Hech qachon o’rganishni va izlanishni to’xtatmang. Vaqt o’tmoqda, shuning uchun ertaga hayotda munosib o’rin topish va zamonaviy mutaxassis bo’lish uchun bugun o’qish kerak. Siz ota-onangiz va yurtimiz orzularini ro’yobga chiqaradigan yangi avlod sifatida yetishishingizga ishonaman. Albatta, sizda ilm bor. Bilim, ko’p marta aytganimdek, olovda yonmaydi, suvda cho’kmaydi. Bizning yagona to’g’ri yo’limiz - bilim sari yo’l.”¹⁰

Ushbu nutqning pedagogik ahamiyati shundaki:

¹⁰ Shavkat Mirziyoyev: “Bizning yagona to’g’ri yo’l - bilim sari yo’l”. Andijon viloyatiga tashrifidagi nutqi. 29.09.2021 y.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



1. Ilmga intilish va izlanish: Prezident ilmga harislik g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quvchilarni uzluksiz o‘rganishga rag‘batlantiradi. Bu hadisiiy “ilmga haris” tushunchasi bilan to‘g‘ri keladi.

2. Shaxsiy va jamiyat mas‘uliyati: Nutqda yoshlar o‘qib, kelajakda zamonaviy mutaxassislar bo‘lish orqali jamiyatga xizmat qilishi ta‘kidlanadi. Bu, xuddi hadisiiy tafsirdagi ilmga haris insonning jamiyatni yuksaltirishi bilan uyg‘unlashadi.

3. Bilimning barqarorligi: “Bilim olovda yonmaydi, suvda cho‘kmaydi” degan so‘zlar ilmning uzoq muddatli, umrboqiy qadriyat ekanligini ifodalaydi. Bu - tadqiqotda ta‘kidlangan lifelong education (umrboqiy ta‘lim) tamoyili bilan mos tushadi.

Shunday qilib, Prezident nutqi hadisiiy pedagogik model va zamonaviy davlat siyosati o‘rtasida mustahkam bog‘liqlikni namoyon qiladi va ilmga harislik konsepsiyasini o‘quvchilarga amaliy motivatsiya sifatida yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa (Conclusion). Hadisiiy qiyos asosida ilmga va dunyoga harislikni pedagogik talqin qilish:

- Ilmga harislik - shaxsiy va jamiyat taraqqiyoti, ma‘naviy kamolot yo‘li;
- Dunyoga harislik - pedagogik ogohlantirish va axloqiy nazorat vositasi;
- Ilm talabi jarayoni - motivatsiya, axloqiy ong va faoliyatga yo‘naltirilgan ta‘limning asosiy omili;

• Tarbiya fanida hadislarning integratsiyasi o‘quvchilarda qadriyatlar ierarxiasini shakllantirish va ma‘naviy-axloqiy yetuklikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, hadisiiy manbalar asosida shakllangan tarbiyaviy model zamonaviy pedagogika va ma‘naviyat konsepsiyasini uyg‘unlashtiradi.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev: “Bizning yagona to‘g‘ri yo‘l - bilim sari yo‘l”. Andijon viloyatiga tashrifidagi nutqi. 29.09.2021 y.

2. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti Ko‘kaldosh o‘rta maxsus islom bilim yurti. Valiyuddin Xatib At-Tabriziy. “Mishkot al-Ma‘sobih”: Ilm kitobi. Birinchi jild. Uchinchi fasl. 645-646-650-betlar. 253-255-260-hadislari. “Hilol nashr”. Toshkent-2023.

3. Tarbiya fani. Baxt va muvaffaqiyat sirlari. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent «O‘zbekiston» 2020.